

**QORAQALPOG‘ISTON
RESPUBLIKASI
BERUNIY TUMANI
HOKIMINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
BERUNIY RAYONI
HAKIMINIŃ
SHE SHIMI**

2021 - yil 22 - noyabr

122-13-182-Q/21

Beruniy tuman hokimligi

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021 yil 11 noyabrdagi
“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 noyabrdagi “Sport-ta‘lim
muassasalari faoliyatini 2025 yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-5280-
sonli qarori haqida”gi 147-13-0-Q/21-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 noyabrdagi “Sport-ta‘lim muassasalari faoliyatini 2025 yilgacha rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi PQ-5280-sonli qarori hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021 yil 11 noyabrdagi 147-13-0-Q/21-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021 yil 11 noyabrdagi 147-13-0-Q/21-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

a) Quyidagilar:

Sport-ta‘lim muassasalari faoliyatini 2025 yilgacha rivojlantirish dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Sport-ta‘lim muassasalari faoliyatini 2025 yilgacha rivojlantirish dasturini 2021–2022 yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq;

Sport-ta‘lim muassasalari faoliyatini 2025 yilgacha rivojlantirish dasturining maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari) 3-ilovaga muvofiq;

2022-2025 yillarda olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlari obektlarini qurish, rekonstruktsiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlashning asosiy parametrlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

b) quyidagilar belgilanganligi:

sport bino va inshootlarida qurilish-ta‘mirlash ishlari faqatgina oldindan ishlab

chiqilgan texnik-iqtisodiy asosnomaga muvofiq amalga oshirilishi;

olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlarning moddiy-texnika bazasini yanada yaxshilash uchun Davlat byudjetidan 2022 yildan boshlab dasturlar to'liq bajarilgunga qadar har yili qo'shimcha:

qurilish-ta'mirlash ishlariga – 50 milliard so'm;

zamonaviy sport jihozlari, texnologiya vositalari, asbob-uskunalar va maxsus sport kiyimlari bilan ta'minlashga – 10 milliard so'm;

tibbiyot bo'limlarini zamonaviy asbob-uskunalar, dori-darmon va tiklantiruvchi vositalar bilan jihozlashga – 10 milliard so'm;

zamonaviy o'quv adabiyotlarini chop etish va xarid qilishga – 2 milliard so'm mablag' ajratilishi;

v) Qurilish vazirligi (B.Zakirov)ga:

Turizm va sport vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda hududlarda o'rganishlar olib borgan holda, olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlari uchun qo'shimcha quriladigan zamonaviy o'quv, yotoqxonalar, oshxona, tibbiyot binolari va sport inshootlarining namunaviy loyihalarini tasdiqlash, bunda, ularning sport inshootlarida jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning sport bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutish;

mazkur qaror asosida obektlarning loyihaoldi va (yoki) loyiha hujjatlari ishlab chiqilishida eng maqbul me'moriy hamda texnik echimlar qo'llanilishini, ularni innovatsion texnologiyalarga asoslangan, arzon, energiya tejamon va tez barpo etiladigan engil konstruktsiya va materiallardan qurish, shinamlilik va ekologik xavfsizlik talablariga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini kompleks ekspertizadan o'tkazishni ta'minlash va qurilishmontaj ishlarining sifatli bajarilishi ustidan doimiy davlat arxitektura-qurilish nazoratini o'rnatish;

g) Turizm va sport vazirligiga:

Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda:

ikki oy muddatda olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlarning tibbiyot bo'limlarida foydalaniladigan zamonaviy tibbiyot asbob uskunalarini ro'yxatini tasdiqlash;

2021-2022 yillar davomida olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlarning tibbiyot bo'limlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda malakali mutaxassislarni jalb qilish choralarini ko'rish;

olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlari o'quvchilarining hududlardagi

ixtisoslashtirilgan markaziy shifoxonalarga maxsus kontingent sifatida birlashtirilishini ta'minlash;

ikki oy muddatda O'zbekiston Milliy kutubxonasi bilan birgalikda sport-ta'lim muassasalari tomonidan respublika va jahon axborot resurslaridan masofadan turib foydalanish tizimini yaratish;

2022 yil 1 yanvarga qadar:

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kutubxonasini sport turlari, umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha 8 000 dona;

olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlari kutubxonalari sport turlari, umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha 7 000 dona;

boshqa sport-ta'lim muassasalarining kutubxonalari sport turlari bo'yicha 35 000 dona xorijiy adabiyotlar bilan ta'minlash choralarini ko'rish topshirilganligi;

sport turlari, umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va ta'lim muassasalariga etkazib berish bilan bog'liq 10 milliard so'mlik xarajatlar birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida Turizm va sport vazirligiga 2021 yilda respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan qoplanishi, kelgusi yillarda ushbu muassasalarning kutubxona fondini boyitib borish ularning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi belgilanganligi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari g'olib va sovrindorlari bo'lgan sportchilar tomonidan tashkil etilgan nodavlat sport-ta'lim muassasalari mashg'ulotlarini olib borish uchun davlat tasarrufida bo'lgan zarur bino va inshootlarning ijara to'lovlarisiz ularga taqdim etilishini ta'minlash;

2022 yil 1 aprelga qadar olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilarni tayyorlayotgan nodavlat sport-ta'lim muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini kiritish;

o'z tizimidagi barcha turdagi sport bino va inshootlarida turniket (lazer-datchikli) va video qayd qilish moslamalarini o'rnatish ishlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni doirasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshirish topshirilganligi;

d) Bosh prokuratura (N.Yo'ldoshev)ga Bosh vazir o'rinbosari – turizm va

sport vaziri A.Abduxakimov bilan birgalikda oxirgi 3 yilda Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan:

qurilgan, shu jumladan, rekonstruktsiya qilingan, mukammal ta'mirlangan va jihozlangan sport obektlarini;

Turizm va sport vazirligi, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi, O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi, sport-ta'lim muassasalari, sport federatsiya (assotsiatsiya)lari va boshqa davlat sport tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan xaridlar va xizmatlarni joyiga chiqqan holda o'rganish;

O'rganish jarayonida sarflangan mablag'lardan oqilona, tejamkor va samarali foydalanganligi, tender va tanlovlar ochiq va shaffof holda o'tkazilganligi, korrupsiyaga yo'l qo'yilmaganligi, davlat xaridlarining boshqa asosiy printsiplariga to'liq rioya qilinganligiga qonuniy baho berish topshirilganligi;

e) Sport-ta'lim muassasalari hamda Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutini jihozlash hamda faoliyatini tashkil etish uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha Turizm va sport vazirligi tomonidan olib kelinadigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan uskunalar, maxsus transport vositalari, multimedia mahsulotlari, tibbiyot trenajyorlari, adabiyotlar, sun'iy hamda tabiiy maydon qoplamalari va inventarlar 2024 yil 1 oktyabrga qadar bojxona bojidan ozod etilishi;

Davlat bojxona qo'mitasiga mazkur bandga asosan xorijdan olib kelinadigan tovarlardan boshqa maqsadlarda foydalanilgan taqdirda, imtiyozlar berilishi munosabati bilan to'lanmagan bojxona boji summasim qonun hujjatlarida nazarda tutilgan moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan holda Davlat byudjetiga undirilishini ta'minlash topshirilganligi;

o) Quyidagi tartib o'rnatilganligi, unga muvofiq:

Davlat byudjeti, shuningdek, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxs, ustav kapitalining 50 foizi va undan ortig'i ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli bo'lgan yuridik shaxs (keyingi o'rinlarda – davlat ulushi mavjud tashkilotlar) hisobidan moliyalashtiriladigan O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi, O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi va sport federatsiya (assotsiatsiya)larining daromadlari va xarajatlari smetasi har yili 1 dekabrgacha Turizm va sport vazirligi hamda Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanishi;

daromadlar va xarajatlar smetasida nazarda tutilgan mablag'lardan ortiqcha xarajat qilishga hamda smetada ko'zda tutilmagan xarajatlarni amalga oshirishga yo'l

qo'yilmaymasligi;

O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi, O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi va sport federatsiya (assotsiatsiya)lari davlat byudjeti va davlat ulushi mavjud tashkilotlar hisobidan moliyalashtiriladigan xarajatlari to'g'risidagi batafsil hisobotni har oy yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar Turizm va sport vazirligi va o'zlarining veb-saytlarida e'lon qilib borishi, bunda, xarajatlar e'lon qilinmaganda moliyaviy huquqbuzarlik deb baholanishi;

sport musobaqalarini o'tkazish uchun byudjet mablag'lari faqat har yili tasdiqlanadigan sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi asosida ajratib borilishi;

Davlat byudjeti va davlat ulushi mavjud tashkilotlar hisobidan moliyalashtiriladigan O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi, O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi va sport federatsiya (assotsiatsiya)lari tomonidan o'tkaziladigan to'lovlar Moliya vazirligi G'aznachiligida va uning hududiy bo'linmalari orqali amalga oshirilishi;

Davlat byudjeti va davlat ulushi mavjud tashkilotlar hisobidan moliyalashtiriladigan sport tadbirlari uchun ajratiladigan mablag'larning samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan doimiy ravishda davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan nazorat o'rnatilishi;

amalga oshirilayotgan xarajatlarning ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, xarajatlarning shakllanishi va sarflanishi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida barcha turdagi xarajatlar har oyda majburiy tarzda maxsus sport tizimini boshqarish platformasida e'lon qilib borilishi;

j) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga hududlarda sport turlarini rivojlantirish bo'yicha ishlarni samarali tashkil qilinishi, har yili sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejalariga muvofiq hududiy sport musobaqalarini to'liq hajmda moliyalashtirish hamda yuqori saviyada o'tkazish choralarini ko'rish;

z) Vazirlar Mahkamasi (A.Aripov)ga uch oy muddatda:

Tokio shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tgan yozgi XXXII Olimpiya o'yinlarida g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilarimiz faoliyatini targ'ib etish tizimini joriy qilish bo'yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi Hukumat qarorini qabul qilish:

mazkur sportchilarimiz tahsil olgan sport-ta'lim va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarda ularning ibratli faoliyatiga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilish;

ko'rgazmalarga yoshlarni keng jalb qilish, ularda sport ruhiyatini yuksaltirish,

bolalar o'rtasida sport tarbiyasini kuchaytirish;

targ'ibot-tashviqot ishlarini muntazam ravishda tashkil etish orqali yoshlarni sportga, ayniqsa, olimpiya va paralimpiya sport turlariga jalb qilish;

Oksana Chusovitina va Bahodir Jalolov nomlaridagi sport mahorati maktablarini tashkil etish va ular uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berish bo'yicha Hukumat qarorini qabul qilish;

sportda yuksak natijalarga erishib, sport jarohatlari olganligi yoki sport faoliyatini yosh ko'rsatkichlariga ko'ra tugatgan yuksak malakali sportchilarni keyingi faoliyatini davom ettirishi uchun kasbga yo'naltirish, ularni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoya qilish bo'yicha Hukumat qarorini qabul qilish;

i) O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligiga ajratilgan mablag'lar doirasida:

mazkur qarorning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini yoritishga oid brifinglar, press-konferentsiyalar, tematik teleko'rsatuvlar tashkil etish;

Kinematografiya agentligi bilan birgalikda yoshlarning sportga kirib kelishidan boshlab ularning yuqori natijalarga erishish yo'li, nufuzli musobaqalardagi ishtiroki va bugungi kundagi hayoti to'g'risida qisqa metrajli badiiy va hujjatli filmlar, videoroliklar, maxsus ko'rsatuvlar tayyorlanishini va ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlash;

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi O'zbekiston Milliy axborot agentligi bilan birgalikda O'zbekiston chempionati (kubogi), mamlakatimizda o'tkaziladigan nufuzli xalqaro musobaqalar (turnirlar)ning ular o'tkazilishidan kamida ikki oy oldin tasdiqlangan media-reja asosida ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot qilinishini amaliyotga joriy etish;

y) Turizm va sport vazirligiga manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish topshirilganligi;

k) Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o'rinbosari A.A.Abduxakimov, O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi raisi R.M.Shaabduraxmanov, O'zbekiston Milliy paralimpiya qo'mitasi raisi M.M.Tashxodjaev hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilanganligi;

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduvaxitov zimmasiga

yuklatilganligi.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan har yarim yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berish topshirilganligi **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

3. Tumanidagi sport-ta'lim muassasalari faoliyatini 2025 yilgacha rivojlantirish dasturini 2021–2022 yillarda amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” 1-ilovaga muvofiq tasdiqlasin.

4. Tuman Turizm va sport bo'limi (E.Dosbayev), Moliya bo'limi (O.Mambetsaburov) tuman hududlarda sport turlarini rivojlantirish bo'yicha ishlarni samarali tashkil qilsin hamda har yili sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejalariga muvofiq hududiy sport musobaqalarini to'liq hajmda moliyalashtirish hamda yuqori saviyada o'tkazish choralari ko'rsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash tuman hokimining o'rinbosari D.Abdullayev zimmasiga yuklatilsin.

Beruniy tumani hokimi



A.Saparbayev

Беруний туман ҳокимининг
2021 йил 22 ноябрдаги
122-13-182-Q/21-сон қарорига
1-илова

Беруний туманидаги спорт-та'лим муассасалари фаoliyatini 2025 yilgacha rivojlantirish dasturini

2021 – 2022 yillarda amalga oshirish bo'yicha

“YO'L XARITASI”

№	Tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul ijrochilar
I. Sport ta'limi muassasalari infratuzilmasini rivojlantirish, moddiy-texnik jihatdan yanada yaxshilash hamda xalqaro talablarga moslashtirish					
1.	Sport ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash, sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini o'tkazishni bugungi kun talablari asosida o'tkazish yuzasidan takliflar tayyorlash.	Bolalar va o'smirlar sport maktabi faoliyatini tanqidiy o'rganish asosida ular faoliyatini yanada rivojlantirish; sport-ta'lim muassasasi xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibini qayta ko'rib chiqib, yangi takomillashtirilgan tizimni joriy etish; sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini o'tkazishni bugungi kun talablari asosida tashkil etish bo'yicha yangi tizimni joriy etish.	2022 yil fevral 2022 yil mart	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi (E.Dosbayev), Moliya bo'limi (O.Mambetsaburov)
II. Yuqori mahoratli va yuksak ma'naviyatli sportchilar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, sportchilar va trenerlarni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish					
2.	Sport ta'lim muassasalarini mahoratli trenerlar bilan ta'minlash choralarini ko'rish.	1. Sport ta'lim muassasalarida toifali trenerlar faoliyat ko'rsatishiga bosqichma-bosqich erishish (foiz hisobida) orqali ularning sifat tarkibini yaxshilash: 2. sport ta'limi muassasalaridagi trenerlar orasida oliy toifali trenerlar ulushi (6%); 3. sport ta'limi muassasalaridagi trenerlar orasida birinchi toifali trenerlar ulushi (35%); sport ta'limi muassasalaridagi trenerlar orasida ikkinchi toifali trenerlar ulushi (30%).	2021-2022 yillar davomida	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi (E.Dosbayev)
III. Hududlarda iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralash (selektsiya)ning raqamlashtirilgan yangi tizimini joriy qilish, iqtidorli yoshlar bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish					

3.	O'zbekiston chempionati musobaqalarini o'tkazishni sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqish.	<ol style="list-style-type: none"> Musobaqalarni o'tkazish reglamentini ishlab chiqish. O'zbekiston chempionatlarini quyidagi tartibda o'tkazish: <ol style="list-style-type: none"> 1-bosqich – muassasa miqyosida; 2-bosqich – tuman (shahar) miqyosida; O'zbekiston chempionatlari o'tkazilgandan so'ng mavjud paralimpiya sport turlari bo'yicha chempionatlar o'tkazish. <ol style="list-style-type: none"> 4.Hududlarda sport turlarini rivojlantirish bo'yicha ishlarni samarali tashkil qilish, sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejalariga muvofiq hududiy sport musobaqalarini to'liq hajmda moliyalashtirish hamda yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha zarur choralarini ko'rish. 	<p>2022 yil yanvar</p> <p>Kalendar rejaga muvofiq</p> <p>Ketma-ket</p> <p>2021 yil noyabrdan boshlab doimiy</p>	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag'lar	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi (E.Dosbayev), Moliya bo'limi (O.Mambetsaburov)
IV. Sportda doping qo'llanishining oldini olish va dopingga qarshi kurashish					
4.	Antidoping nazoratining samarali tizimini joriy etish, sportga farmakologik ta'sir ko'ratuvchi dori vositalari va boshqa moddalar qo'llanilishini nazorat qilish.	<ol style="list-style-type: none"> Sport ta'limi muassasalari o'quvchi-sportchilari va trenerlariga halol sportni targ'ib qilish. Salomatlikni muhofaza qilish va sportda farmakologik ta'sirga ega dori parametrlari va boshqa moddalardan qonuniy foydalanish borasida sportchilar, murabbiylarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish tadbirlarini o'tkazish. Sportchilarini antidoping mavzulariga oid tegishli o'quv-axborot materiallari va turli ko'rgazmali ma'lumotlar bilan ta'minlash. Sportchilar tamonidan antidoping qoidalariga qat'iy rioya qilinishi ustidan samarali antidoping nazoratini amalga oshirish. 	2021-2022 yillar davomida	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi (E.Dosbayev)
V. Ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'ining imkoniyatlaridan faol foydalangan holda ushbu dasturning mazmun-mohiyati hamda uni amalga oshirish jarayoni to'g'risida keng axborot-tugshuntirish ishlarini olib borish					
7.	Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan Internet tarmog'i orqali sportni keng targ'ib qilish choralarini amalga oshirish.	<ol style="list-style-type: none"> Mashhur sportchilar bilan davra suhbatlari, muloqotlar o'tkazish. Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha O'zbekiston chempionatlari va klublarining to'liq yoritilishini ta'minlash. 	2021 yil noyabrdan boshlab doimiy	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi (E.Dosbayev), tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Urazova)

8.	Sportni keng targ'ib qilish, aholini sport sohasidagi yangiliklar to'g'risida xabardor qilish.	1. Teleradiokanallar efirida jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid e'lonlarni namoyish etish. 2. Sport musobaqalarining g'olib va sovrindorlar faoliyati hamda sport bilan shug'ullanishning inson hayoti va salomatligini ta'minlashdagi ahamiyatini targ'ib qiluvchi ko'rsatuv hamda eshittirishlarni efirga uzatish.	2021 йил ноябрдан бошлаб доимий Медиа-режага асосан	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimligi, Turizm va sport bo'limi (E.Dosbayev), tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Urazova)
----	--	---	---	------------------------	--

Izoh: ushbu dastur tegishli davrga mo'ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo'nalishlardan kelib chiqib, har yili alohida tuman hokimining qarori bilan tasdiqlanadigan "yo'l xaritasi" orqali bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi.